

# Uyda qoling va jamiyatimiz rivoji uchun o'z hissangizni qo'shing!

Xalqimiz o'z tarixida juda qiyin vaqtlarni ham mardonavor yengib o'tgan. Ayni vaqtda butun xalqimiz Prezidentimiz atrofida bir jonu bir tan bo'lib bizdan talab etilayotgan amallarni o'z vaqtida bajarishimiz bu kunlarni tezroq, talofatlarsiz yengib o'tishimizga asos bo'ladi.

Biz hammamiz birgalikda yurtimizda koronavirusning keng tarqalmasigi uchun mas'ulmiz. Buning uchun biz o'zimizning, oila a'zolarimizning, yaqinlarimizning, butun xalqimizning sog'ligi uchun kunu tun matonatli mehnat qilayotgan sog'liqni saqlash xodimlariga yordamimiz "uyda qolishimizdir". Bu bilan biz koronavirusni eksponentsial tarqalishiga katta to'siq qo'ygan bo'lamiz. Uyda qoling va jamiyatimiz rivoji uchun o'z hissangizni qo'shing!

**Shomansur Sagdullayev,**  
**O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi instituti,**  
**Oliy Majlis Senati a'zosi.**